

**RAQOBATBARDOSH VA BARQAROR IQTISODIYOTNI
SHAKLLANTIRISHDA KORXONALAR BOSHQARUV FAOLIYATINING
ROLINI TAHLIL QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA
STRATEGIYALAR**

Ilmiy rahbar: Andijon davlat texnika instituti
“Buxgalteriya hisobi va menejment” kafedrasи
katta o‘qituvchisi **Maxramova Nigora Yuldashevna**
Nuriddinov Muhammaddiyor
Andijon davlat texnika instituti
Menejment yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotni shakllantirishda korxonalar boshqaruv faoliyatining muhim rolini tahlil qiladi. Maqolada zamonaviy iqtisodiy sharoitlar, globalizatsiya va raqamli transformatsiya kontekstida korxonalar qanday qilib o‘z strategiyalarini yangilab, raqobat ustunligini saqlab qolishlari mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Tahlil jarayonida korxonalar uchun samarali boshqaruv, innovatsion yondashuvlar, barqaror rivojlanish tamoyillari va ijtimoiy mas’uliyatning ahamiyati ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada muvaffaqiyatli korxonalarning tajribalari asosida amaliy tavsiyalar berilib, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan strategik rejallashtirish jarayonlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: raqobat, samarali boshqaruv, barqaror iqtisodiyot, globalizatsiya, raqamli transformatsiya, innovatsion yondashuvlar, strategik rejallashtirish.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotni shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Global bozor sharoitida tezkor o‘zgarishlar, yangi texnologiyalar, raqobatchilar bosimi va tashqi iqtisodiy omillar korxonalar faoliyatini yanada murakkablashtirmoqda. Shu sababli, samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va ularni o‘z vaqtida, asosli ravishda qabul qilish zaruriyati

oshib bormoqda. Samarali qarorlar qabul qilish jarayonida bir qator omillar muhim rol o‘ynaydi [1]. Bular orasida rahbariyatning shaxsiy tajribasi va ichki siyosati bilan bir qatorda, tizimli yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar, xodimlar ishtiroki va tashqi muhitga moslashuvchan strategiyalar alohida o‘rin tutadi. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida mavjud ichki va tashqi muammolar - rahbariyat malakasining pastligi, axborot tizimlarining eskirganligi, xodimlar motivatsiyasining sustligi - samarali qaror qabul qilishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuvlarni joriy etish zarur. Doimiy malaka oshirish, axborot texnologiyalarini yangilash, xodimlarni rag‘batlantirish va yuridik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish kabi chora-tadbirlar korxonalarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega [2]. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya jarayonlari ham bugungi kunda korxonalar faoliyatini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar yordamida real vaqt rejimida tahlillar olib borish, xodimlarning fikrini inobatga olish va zamonaviy menejment konsepsiyalardan foydalanish samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhimdir. Bu yondashuvlar nafaqat alohida korxonaning, balki umuman mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksalishiga xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, samarali boshqaruv qarorlari korxona faoliyatini optimallashtiribgina qolmay, uning iqtisodiy barqarorligini, raqobatbardoshligini va uzoq muddatli istiqbolini belgilaydi. Bu jarayonda yoshlar – kelajak iqtisodchilari va menejerlari oldida mas’uliyatli vazifalar turibdi. Ular zamonaviy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlab, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotimizni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi shubhasiz.

Raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotni shakllantirishda korxonalar faoliyati muhim o‘rin tutadi [3]. Ayniqsa, samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va ularni o‘z vaqtida, asosli qabul qilish korxona rivojining hal qiluvchi omillaridan biridir. Global iqtisodiyotda tez o‘zgarayotgan sharoitlarda qaror qabul qilishda zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalarning qo‘llanilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ko‘plab ishlab chiqarish korxonalarida yetarli zamon talabiga javob bera oladigan texnika texnologiyalar yetishmasligi, shuningdek ishlab chiqarish jarayoniga

bevosita ta'sir qiladigan bir qancha omillar samarali qaror qabul qilishga to'sqinlik qilishi mumkin. Hususan tashqi va ichki omillar shular jumlasidan.

Ichki omillarga rahbariyat malakasi, moliyaviy holati, axborot texnologiyalari, xodimlar motivatsiyasi, boshqaruv strukturasi kiradi. Misol uchun, biror korxona yoki tashkilotda rahbariyat malakasi yoki xodimlar motivatsiyasi yetishmasligi kuzatilsa, bu bir qancha jiddiy muammolarga olib keladi. Bunda kadrlar qo'nimsizligiga, korxonaning iqtisodiy holatiga va yana bir qancha muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Tashqi omillardan iqtisodiy muhit, qonunchilikdagi o'zgarishlar, raqobatchilar faoliyati, global trendlar samarali qaror qabul qilishda o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. **Iqtisodiy muhitga** bu har bir korxona faoliyat yuritadigan tashqi muhitning asosiy omillaridan biri bo'lib, boshqaruv qarorlarini samarali yoki aksincha, noaniq holatlarda qabul qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [4]. Inflyatsiya darajasini misol qilib oladigan bo'lsam, inflyatsiya yuqori bo'lsa, korxona xarajatlarining o'sishi, foyda marjasining kamayishi mumkin. Bu esa narx belgilash, investitsiya qilish yoki ishchi kuchini optimallashtirish bo'yicha ehtiyyotkor va aniq qarorlar qabul qilishni talab etadi. Chunki korxonaning asosiy maqsadi kamroq harajat qilib ko'proq foyda olishga qaratilgan hisoblanadi. Yana bir ta'sir etuvchi omil bu foiz stavkalari va kredit siyosati bo'lib, bank foiz stavkalari oshsa, korxonalar kredit olib yangi loyiha boshlashdan cho'chiydi, bu esa investitsion qarorlarni sekinlashtiradi va tezroq foyda olish imkoniyati uzoqroq muddatga cho'zilish holatlarini ham keltirib chiqaradi [5].

Mazkur muammolarga yechim topilishi korxona muvofaqiyatga erishishi ancha osonlashadi va optimal qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi. O'z-o'zidan korxonada rentabellik darajasi, iqtisodiy holati ham yaxshilanadi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish maqsadida doimiy malaka oshirish kurslarini hamda seminarlar tashkil etish, yangi rahbarlar uchun **mentorlardan iborat ichki maslahatchi guruh** tuzish lozim. Shuningdek, axborot tizimidagi zaifliklarga barham berish zarur. Chunki hozirgi texnika - texnologiya rivojlanayotgan bir davrda eskirgan yoki fragmentar tizimlar tufayli ma'lumotlar ishonchli va tez yetkazilmaydi. Shuning uchun zamon talabiga javob beradigan axborot texnologiyalarni jalb qilinsa, bunday

muammoli vaziyatlar bartaraf etiladi. **Inflyatsiya darajasi, bozor talabining dinamikasi tez o'zgarib ketish xavfi natijasida qaror qabul qilishda real vaqt rejimidagi ma'lumotlarga asoslanish talab etiladi.**

Xodimlar motivatsiyasi va ishtiroki pastligi, kadrlar o'zini qaror qabul qilish jarayonida bevosita ishtirokchi deb hisoblamasligini oldini olish maqsadida **xodimlarni** kengashlar, yig'ilishlarga jalb qilgan holda, strategik qarorlar muhokamasiga ishtirokini ta'minlash lozim [6]. Shuningdek, shuni ta'kidlab o'tish joizki, motivatsiya tizimini joriy qilish darkor, bиринчи navbatda lavozim ko'tarilishi bu har bir xodim uchun o'ziga ishonchini oshiradi va korxona uchun foyda keltirishga ko'proq hissa qo'shishga harakat qiladi. Moddiy tomonlama motivatsiyalarni ham ko'paytirishni joriy qilish kerak. Mukofot puli, bonus, KPIлarni ko'paytirish korxonada ichki raqobatni shakllantiradi va ishlab chiqarish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin va, tabiiyki, qarorlarni samarali bo'lishiga ham bu omillar yaxshigina turtki bola oladi. Ichki innovatsion tanlovlari o'tkazish orqali g'oyalarni yig'ish ko'plab innovatsion loyihamalar amalga oshirilishini, korxonaning jadallik bilan rivojlanishini ta'minlaydi. Bu loyihamalar ko'plab muammolarga yechim topishda yoki boshqa bir qancha yangiliklar kiritish yo'llarini ochib beradi.

Korxonada qarorlarni samarali bo'lishini ta'minlash uchun SWOT va PEST tahlillari orqali doimiy monitoring qilib turish zarur, chunki talab, narx, raqobat tez o'zgaradi [7]. Bu esa noaniqliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shuni oldini olish maqsadida doimiy tahlil qilish foydadan holi emas. Yana tez-tez o'zgaradigan soliqlar, ruxsatnomalar korxonani tavakkal ostiga qo'yadi buni yechimi esa Korxonada **yuridik va komplayens bo'limi** tashkil qilish, Davlat bilan **ijtimoiy sheriklik** asosida ishslash, savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlik, huquqiy monitoring tizimi joriy qilish bunday muammolar keltirib chiqarishini oldini oladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqobatbardosh va barqaror iqtisodiyotni shakllantirishda korxonalar faoliyati beqiyos ahamiyat kasb etishi yana bir bor o'z isbotini topadi. Ayniqsa, global bozor iqtisodiyotida yuz berayotgan tezkor o'zgarishlar, yangi texnologiyalar, raqobatchilar bosimi va tashqi iqtisodiy omillar

fonida korxonalarda samarali boshqaruв qarorlarini ishlab chiqish va ularni o‘z vaqtida, asosli ravishda qabul qilish zaruriyati yanada oshib bormoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, samarali qarorlar faqatgina rahbariyatning shaxsiy tajribasi yoki ichki siyosati bilan emas, balki tizimli yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar, xodimlar ishtiroki va tashqi muhitga moslashuvchan strategiyalar orqali amalga oshirilishi kerak. Ishlab chiqarish korxonalarida mavjud ichki va tashqi muammolar – bu rahbariyat malakasining pastligi, axborot tizimlarining eskirganligi, xodimlar motivatsiyasining sustligi, iqtisodiy muhitdagi o‘zgaruvchanlik, qonunchilikdagi noaniqliklar va foiz stavkalaridagi beqarorlik – samarali qaror qabul qilishga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun esa kompleks yondashuvlar, jumladan, doimiy malaka oshirish, axborot texnologiyalarini zamonaviylashtirish, xodimlarni rag‘batlantirish, yuridik monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish, SWOT va PEST tahlillar asosida strategik rejorashtirish alohida o‘rin tutadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, samarali boshqaruв qarorlari korxona faoliyatini optimallashtiribgina qolmay, uning iqtisodiy barqarorligini, raqobatbardoshligini, foydalilik darajasini va uzoq muddatli istiqbolini ham belgilab beradi. Qarorlar qabul qilish jarayonida raqamli transformatsiya, xodimlarning fikrini inobatga olish, real vaqt rejimidagi tahlillarga asoslanish va zamonaviy menejment konsepsiyalardan foydalanish bugungi davr talabidir. Yuqorida keltirilgan yechimlar tizimli ravishda joriy etilsa, nafaqat alohida korxonaning, balki umuman mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksalishiga xizmat qilishi shubhasiz. Bu esa biz yoshlar – keljak iqtisodchilari va menejerlari oldida mas’uliyatli va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X. Menejment asoslari. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2016.
2. Qurbanov Sh., Bobojonov S. Korxona iqtisodiyoti. – T.: “IQTISODIYOT”, 2020.

3. Egamberdiyev M. Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat muhitining ta'siri. – T.: TDYU, 2021.
4. Muminov N., Usmonov M. Iqtisodiyotda qaror qabul qilish va tavakkalchilik. – T.: "Iqtisodchi", 2019.
5. Nigoraxon, Maxramova, and Egamberdiyev Shavkatbek. "STRATEGIK REJALASHTIRISH JARAYONI: STRATEGIK REJALASHTIRISHNING ASOSIY BOSQICHLARI VA ULARNING AHAMIYATI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 37.4 (2025): 187-192.
6. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.
7. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari milliy bazasi.